

BADIIY TARJIMALARDA MILLIY KOLORITNI SAQLASH MUAMOLARI (O`TKAN KUNLAR ROMANI MISOLIDA)

Ochilova Zeboxon Sohibjon qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti

Lingvistika yo`nalishi 1-kurs magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-9976-7145>

E-mail: ochilovazebo45@gmail.com

[Tel:+998971997577](tel:+998971997577)

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy tarjimada milliy kolorit hamda realiyalarning, ya'ni milliy xos so'zlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ularning adabiy asarda tutgan o'rni, vazifalari va qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida milliy koloritni saqlab qolish muammolari hamda realiyalarni boshqa tilga o'girishda qo'llaniladigan eng samarali tarjima usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kolorit, transliteratsiya, analogiya, milliy xos so'zlar, realiya, mahalliy kolorit, "O'tkan kunlar".

Abstract. This article examines the significance of national color and cultural realia, also known as nation-specific terms, in literary translation. It analyzes their role, functions, and usage within literary works. In addition, the study discusses the challenges of preserving national color in translation and highlights the most effective methods for conveying cultural realia from one language into another.

Keywords: national color, transliteration, analogy, nation-specific terms, cultural realia, literary translation, "Bygone Days".

Аннотация. В данной статье рассматривается значение национального колорита и реалий, то есть слов с национальной спецификой, в художественном переводе. Анализируется их роль, функции и особенности использования в

литературном произведении. Также рассматриваются проблемы сохранения национального колорита при переводе художественных произведений и наиболее эффективные методы передачи реалий на другой язык.

Ключевые слова: колорит, транслитерация, аналогия, слова с национальной спецификой, реалии, местный колорит, «O‘tkan kunlar».

Kirish. Tarjima jarayoni faqatgina bir tildagi matnni boshqa tilga ko‘chirish bilan cheklanmaydi. U xalqlar o‘rtasidagi madaniy, adabiy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [Salomov, 1983, p. 45]. Ayniqsa, badiiy tarjima jarayonida tarjimon oddiy vositachi emas, balki muallif asarini boshqa til muhitida qayta yaratuvchi ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy tarjima murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, tarjimondan nafaqat til bilimini, balki keng madaniy dunyoqarash, tarixiy bilim va badiiy tafakkurni ham talab etadi. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, an’analarini va hayot tarzi mavjud. Shu sababli badiiy asarlarda milliy xususiyatlarni ifodalovchi ko‘plab so‘z va tushunchalar uchraydi [Ochilov, 2012, p. 27; Venuti, 2008, p. 102; Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Bunday birliklar ko‘pincha milliy realiyalar yoki milliy xos so‘zlar sifatida talqin qilinadi. Tarjimonning asosiy vazifalaridan biri ana shu milliy xususiyatlarni boshqa til o‘quvchisiga imkon qadar aniq va tabiiy yetkazishdan iboratdir [G‘ofurov, 2003, p. 61; Venuti, 2008, p. 102]. Tarjima jarayonida muallif uslubi, asarda tasvirlangan ijtimoiy muhit hamda milliy realiyalarni saqlab qolish katta ahamiyatga ega [Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Chunki aynan milliy kolorit badiiy asarning o‘ziga xos ruhini va estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biridir [Venuti, 2008, p. 102]. Shu nuqtai nazardan, milliy kolorit va milliy xos so‘zlarni tarjimada to‘g‘ri ifodalash badiiy tarjimaning sifatini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi [Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Mazkur maqolada badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash masalalari hamda milliy realiyalarni tarjima qilish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘tkan kunlar romani materiallari asosida milliy koloritning tarjimada aks ettirilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Asar muallifi Abdulla Qodiriy o‘z ijodida o‘zbek xalqining tarixiy hayoti, urf-odatlarini va ijtimoiy muhitini yorqin

tasvirlagan bo‘lib, bu holat uni badiiy tarjima nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi [G‘ofurov, 2003, p. 61].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o‘rganish jarayonida tarjimashunoslik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [Venuti, 2008, p. 102; Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Ushbu tadqiqotda tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullangan bir qator olimlarning ilmiy qarashlari hamda metodologik yondashuvlariga tayanildi. Xususan, E. Ochilov ning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” asarida tarjima jarayonining asosiy tamoyillari hamda badiiy matnni boshqa tilga o‘tkazishning muhim jihatlari keng yoritilgan [Ochilov, 2012, p. 27; Venuti, 2008, p. 102]. Shuningdek, G‘aybulla Salomov tomonidan yozilgan “Tarjima nazariyasi asoslari” kitobida tarjima jarayonining nazariy asoslari, tarjimon oldida turgan vazifalar hamda badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan [Salomov, 1983, p. 45; Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Bundan tashqari, milliy xos so‘zlar va realiyalarni tarjima qilish masalalari H. Hamroyev ning “Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima” nomli ilmiy ishida ham batafsil ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda bunday birliklarni tarjimada ifodalash usullari haqida muhim fikrlar bildirilgan [Hamroyev, 2010, p. 14; Venuti, 2008, p. 102]. Shuningdek, Ibrohim G‘ofurov ning “Tarjima nazariyasi” asarida badiiy tarjimaning lingvistik va stilistik jihatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan [G‘ofurov, 2003, p. 61; Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Mazkur manbalarga tayanilgan holda badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash muammolari o‘rganildi hamda O‘tkan kunlar romani misolida milliy realiyalarni tarjima qilish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tavsifiy usul hamda tarjima jarayonini lingvistik jihatdan o‘rganish metodlaridan foydalanildi [Venuti, 2008, p. 102; Hatim & Mason, 1997, p. 56].

Natijalar va muhokamalar. Badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat matnning mazmunini, balki asarning uslubiy xususiyatlarini, obrazlar tizimini hamda unda aks etgan milliy koloritni ham imkon qadar saqlab qolishga harakat qiladi. Badiiy matnning milliy ruhini boshqa til vositalari orqali qayta yaratish

tarjima jarayonining eng murakkab va mas'uliyatli jihatlaridan biri hisoblanadi [Venuti, 2008, p. 102; Hatim & Mason, 1997, p. 56]. Badiiy obrazni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun tarjimon bir necha bosqichli jarayonni amalga oshirishi zarur. Avvalo, u asar yaratilgan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy muhitini chuqur o'rganishi lozim. Keyingi bosqichda esa qahramon xarakterining asosiy belgilarini aniqlab, ularning mazmun-mohiyatini tahlil qiladi. Shundan so'ng asliyat tilida obrazni yaratishda qo'llangan til vositalari va uslubiy usullar tahlil qilinadi hamda tarjima tilida shu mazmuni ifodalashga xizmat qiladigan mos vositalar tanlanadi. Shunday qilib, tarjima jarayonida til almashsada, asarning milliy ruhi va madaniy xususiyatlari saqlanib qolishi muhim hisoblanadi. "Kolorit" tushunchasining kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, u lotin tilidagi color hamda italyan tilidagi colorito so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "rang", "ohang" yoki "jilo" kabi ma'nolarni bildiradi. Tasviriy san'atda kolorit ranglarning uyg'unligi orqali voqelikni tasvirlashni anglatadi. Badiiy adabiyot va tarjima nazariyasida esa kolorit ma'lum bir xalqning turmush tarzi, mentaliteti, madaniyati va hayot tarziga xos bo'lgan belgilar majmuini ifodalaydi. Shu sababli kolorit asarning mazmuni, g'oyasi, davri va muallif uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va tushunchalar odatda realiya yoki milliy xos so'zlar deb ataladi. Milliylik esa muayyan xalqning ma'naviy va moddiy hayotidagi o'ziga xos xususiyatlar yig'indisini anglatadi. Ma'naviy hayotga kishilarning tafakkur tarzi, ruhiyati, fe'l-atvori, hazil-mutoyiba madaniyati va dunyoqarashi kiradi. Moddiy hayot esa urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari, milliy taomlar, musiqa asboblari va boshqa turmush unsurlarini qamrab oladi. Badiiy asarda ana shu elementlarning badiiy tasviri milliy koloritni shakllantiradi. Adabiyotshunoslikda yana mahalliy kolorit tushunchasi ham mavjud. Mahalliy kolorit muayyan hudud yoki joyga xos bo'lgan turmush tarzi, urf-odatlar, tabiat manzaralari hamda til xususiyatlarining badiiy asarda aks etishini anglatadi. "Realiya" atamasi ham lotin tilidan olingan bo'lib, u "buyum" yoki "narsa" bilan bog'liq tushunchani bildiradi. Realiyalar badiiy asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali muallif qahramonlarning hayotiy muhitini, xalqning milliy o'ziga xosligini va tarixiy sharoitini tasvirlaydi. Shu bois realiyalar badiiy asarning milliy koloritini yaratishda

muhim rol o‘ynaydi. Biroq aynan shu birliklar tarjimon uchun ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi, chunki boshqa tilda ularning to‘liq muqobilini topish har doim ham oson emas. Realialar tarkibiga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, musiqa asboblari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, shaxs ismlari va laqablar, geografik nomlar, marosimlar, diniy tushunchalar, ijtimoiy unvonlar, turli muassasa va tashkilot nomlari, shuningdek tabiat manzaralari, hayvon va o‘simlik nomlari kabi ko‘plab birliklar kiradi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy ijodida ham milliy xos so‘zlar keng qo‘llangan. Uning mashhur romani O‘tkan kunlar o‘zbek xalqining tarixiy hayoti, urf-odatlar va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi realialar bilan boydir. Asarda “to‘y”, “sarpo”, “do‘ppi”, “ariq”, “mahalla”, “xotin-xalaj” kabi milliy tushunchalar uchraydi va ularni boshqa tilga tarjima qilish tarjimon oldida muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Mazkur roman ingliz tiliga Carol Ermakova tomonidan “Days Gone By” hamda Mark Reese tomonidan “Bygone Days” nomlari bilan tarjima qilingan. Har ikki tarjimon asarda uchraydigan milliy xos birliklarni imkon qadar to‘g‘ri va mazmunan yaqin shaklda yetkazishga harakat qilgan. Milliy xos so‘zlarni tarjima qilishda odatda bir necha asosiy usullar qo‘llaniladi. Birinchi usul — transliteratsiya. Bu usulda so‘z asliyat tilidagi shakliga yaqin tarzda boshqa til alifbosi yordamida yoziladi. Ko‘pincha joy nomlari, shaxs ismlari yoki milliy tushunchalar aynan shu usul orqali beriladi. Masalan, romanda uchraydigan Yusufbek hoji, Qushbegi, Musulmonqul, Otabek, Mirzaboshi kabi nomlar ingliz tilida Yusufbek Hadji, Kushbegi, Musulmonkul, Atabek, Mirzabashi shaklida transliteratsiya qilingan. Shuningdek, “mahalla” so‘zi ham ingliz tilida mahalla tarzida saqlab qolingani. Ikkinchi usul — analogiya. Bu usulda asliyat tilidagi tushuncha tarjima tilida unga yaqin ma’nodagi boshqa birlik orqali ifodalanadi. Bunday tarjima ko‘pincha “yaqin tarjima” deb ham ataladi. Masalan, “sarpo” so‘zi ingliz tilida ceremonial gift shaklida berilgan. Uchinchi usul — yangi so‘z yoki so‘z birikmasini yaratish. Ba’zi hollarda tarjimon milliy tushunchaning ma’nosini tushuntirish uchun yangi ifoda yoki tavsifiy birliklardan foydalanadi. Biroq bu usul har doim ham o‘zini oqlamaydi. Shuning uchun tarjima jarayonida milliy xos birliklarning ma’nosini imkon qadar aniq va tabiiy tarzda yetkazish muhim hisoblanadi [Hatim & Mason, 1997, p. 56; Venuti, 2008, p. 102].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida milliy kolorit hamda realiyalarni to‘g‘ri ifodalash muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu birliklar asarning badiiy ruhini, tarixiy muhitini hamda muallif yaratgan madaniy makonni aks ettiradi. Agar tarjimada milliy xususiyatlar yetarli darajada saqlanmasa, asarning estetik va badiiy qiymati ham sezilarli darajada kamayishi mumkin. Badiiy tarjima bilan shug‘ullanuvchi tarjimon faqatgina chet tilini mukammal bilishi bilan cheklanib qolmasligi kerak. U o‘z ona tilining grammatikasi, leksik boyligi va stilistik imkoniyatlarini ham yaxshi egallagan bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, tarjima jarayonida turli xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va turmush tarziga oid bilimlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Tarjimashunoslikda milliy realiyalar va milliy xos so‘zlarni tarjimada aks ettirish masalasi keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli tarjimon har bir milliy birlikni alohida e‘tibor bilan tahlil qilishi va ularni boshqa tilga o‘g‘irishda transliteratsiya, analogiya yoki tavsifiy tarjima kabi usullardan maqsadga muvofiq foydalanishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘tkan kunlar romanida uchraydigan milliy xos so‘zlar o‘zbek xalqining tarixiy hayoti, madaniyati va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Shu bois bunday realiyalarni tarjimada to‘g‘ri ifodalash asarning milliy ruhini saqlab qolish va o‘quvchiga muallif yaratgan muhitni to‘laqonli his etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Venuti, L. (2008). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
2. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. London: Routledge.
3. Ochilov, E. (2012). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan.
4. Salomov, G’. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: Sharq.
5. Hamroyev, H. (2005). *Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima*. Toshkent: Ma’naviyat.
6. G‘ofurov, I. (2003). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: Akademiya.
7. Qodiriy, A. (1919). *O‘tkan kunlar*. Toshkent: Matbuot.